



**Marketing tushunchasi va uning bozor iqtisodiyotidagi muhim roli.**

**Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi**  
**Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi**  
**+99891 583 00 53**

**Email: [nigorasayfullayeva1001@gmail.com](mailto:nigorasayfullayeva1001@gmail.com)**

**The concept of marketing and its important role in the market economy.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada marketing, marketingning maqsad va vazifalari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek firma va kompaniyalar rivojida strategik marketingning ham o'rni haqida to'xtalib o'tilgan.

**Abstract:** This article provides detailed information about marketing, the goals and objectives of marketing. The role of strategic marketing in the development of firms and companies was also discussed.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о маркетинге, целях и задачах маркетинга. Также обсуждалась роль стратегического маркетинга в развитии фирм и компаний. .

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, marketing, strategik marketing, marketing maqsad va vazifalari.

**Keywords:** Economy, marketing, strategic marketing, marketing goals and objectives.

**Ключевые слова:** Экономика, маркетинг, стратегический маркетинг, цели и задачи маркетинга.

**Kirish:**

Bugungi tobora rivojlananib borayotgan tadbirkorlik va biznes yo'qki, jahonda o'z o'rnini topish maketingdan foydalanmagan. Shu sababli mamlakatimiz ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tar ekan, bunda tadbirkorlikni va biznesni qo'llab quvvatlash muhim rol o'ynashini va marketing ham buning bir qismi ekanligini ta'kidlab o'tishadi. Hususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mikro dan kichik biznesga o'smoqchi bo'lgan tadbirkorlarga marketing bilimlarini olish uchun quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tdi, "Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida tajriba orttirgan 500 mingdan ziyod mikro-biznes vakillari bor. Endi 9 ming 400 ta mahalladagi hokim





yordamchilari o‘z hududida mikrodan kichik biznesga o‘smoqchi bo‘lgan 3-4 nafar tadbirkorni har oyda biznes markazlariga jalb qiladi. Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashadi, o‘z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarni o‘qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko‘rsatadi”.<sup>1</sup> Ko‘rinib turibdiki mamlakatda va biznes olamida har bir tadbirkorlik bilan shug‘illanmoqchi bo‘lgan shaxslarda, bizneslari rivoji uchun marketingni o‘rni juda muhimdir.

**Marketing**-bu hozirgi paytdagi biznes falsafasi bo‘libgina qolmay shuningdek faol jarayondir ham. U harakatdagi jarayon sifatida bozor iqtisodiyoti aniq faoliyati ko‘rsatishi uchun muhim hisoblangan bir qancha vazifalarni hal qiladi.

**Marketing**-bu reklama, xaridorga ta‘sir qilgan holda sotish hajmini oshirish uchun qilinadigan jarayon. Shu bilan birgalikda mahalliy va jahon bozorini ishlab chiqaruvchi o‘z o‘rnini egallash uchun qo‘llanadigan vositadir ham.

Raqobatbardosh bozor sharoitida tadbirkorlik rivoj topishi uchun, marketologlar bu jaryonda kerakli shaxslar hisoblanadi. Bozor sharoiti va iste‘molchi talabani o‘rganish orqali kerakli, mahsulotlarni reklama qilish va qanaqa yo‘l bilan bo‘lmasin xaridorga o‘z ta‘sirini ko‘rsatish va mahsulotni sotish bilan o‘rin egallash bu marketologning muhim bir vazifasi hisoblanadi.

#### **Shu o‘rinda biz Marketingning tahlil va tadqiq ob‘ektlarini ko‘rib chiqsak:**

- bozor;
- tovarlar va xizmatlar;
- tovarlar va xizmatlarning sifati;
- baholar va tariflar;
- xaridorlar va xizmatlardan foydalanuvchilar;
- firmalar, tovarlar, xizmatlarning raqobatbardoshligi;
- raqobat kurashi;
- talab va taklif;
- bozor konyunkturasi;
- tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarishga, sotishga ketadigan xarajatlar;
- tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish texnologiyalari;

---

<sup>1</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi” dan 18.08.2023





- marketing strategiyasi.

### **Marketingning maqsadlari va vazifalari:**

- tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish;
- sarf-xarajatlarni kamaytirish;
- foydani oshirish;
- tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini ko'paytirish;
- tovarlar va xizmatlarni yangi bozorlarga kiritish;
- tovar va xizmatlar siyosatini yaratish;
- narx va tarif siyosatini yaratish;
- marketing dasturini yaratish.

Muvaffaqiyatga erishgan va yuqori daromadga ega kompaniyalar tajribasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, "Marketing" atamasi bozor sari harakatlanish va yuqori daromadning kaliti ekanligini ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab turli jarayonlarni oynayijahonda tomosha qilar ekanmiz, ko'zimiz beixtiyor turli tuman reklamalarga tushadi. Shulardan biri "Pepsi" kompaniyasi reklamasidir. Kompaniya yuqori daromad va iste'molchilarga ega bo'lishiga qaramasdan, reklamaga millonlab pul sarf qiladi va bu yo'lda u mashhur futbolchilardan foydalanishi hech kimga sir emas.<sup>2</sup> Ko'rib turibmizki har qanday sharoitda marketing bu ishlab chiqaruvchilarning ajralmas qismidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **Kompaniyalarda marketing yana qanday yo'llar bilan muhim rol o'ynashini ko'rib chiqsak:**

1) **Operatsion marketing**–qisqa muddatga rejalashtirilgan bozorlarga qaratilgan faol jarayondir.

Bu jarayonda quyidagi hollar ham kiritiladi. **Ya'ni;**

- Maqsadli segmentni tanlash;
- Marketing rejasi;
- Kompleks marketing bosimi
- Marketing budjeti
- Rejani amalga oshirish va nazorat

---

<sup>2</sup> <https://www.marketing-interactive.com/pepsi-football-film-nutmeg-royale>





Shuningdek operatsion marketingda yana bir muhim vazifa turadi va u mahsulot qancha sifatli ishlab chiqarilganiga qaramay, tovarga bozor talablaridan kelib chiqqan holda narx qo'yishdir. Misol sifatida olaylik past daromadli mamlakatda eng kam oylik ish haqi \$30, lekin yuqori daromadli mamlakatda esa \$300. Lekin mahsulot sifati va narxi, ikkala turdagi davlat uchun ham teng. Shuni nazarda tutish lozimki, real holatda mahsulot ikkala davlatga har xil narxlarda sotiladi. Biz ma'lum bir shokoladni Amerikada \$10 olsak, lekin uni O'zbekistonda bozor sharoitidan kelib chiqin pastroq \$5 olishimiz mumkin. Bu albatta Operatsion marketingning faolligidan dalolat beradi.

2) **Strategik marketing**- bu, jismoniy shaxslar va tashkilotlar ehtiyojlarining tahlilidir. Marketing jihatidan olib qaraydigan bo'lsak, iste'molchi faqatgina tovarga emas va balki shu tovar orqali yechiladigan muammoning hal qilinishiga muhtojdir. Bu yerda yechimning eng asosiy yordamchisi bu texnologiyalar hisoblanadi.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, strategik marketing kompaniyaning istiqboli uchun, o'rta va uzoq muddatli jarayonni o'z ichiga oladi. Uning vazifasi kompaniya missiyasini aniqlash, maqsad qo'yish va tovar xilma xilligi muvozanatini ta'minlashdan iboratdir.

### **Xulosa va takliflar:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki yuqorida ko'rsatganimizdek marketing bu har bir muvaffaqiyatli biznesmen va tadbirkorning suv va havosidek. Eng yaxshi marketingga ega bo'lish uchun ham bizda kuchli va tajribali marketoglar bo'lishi kerakligini ham yuqorida ko'rib o'tdik. Har bir boshlangan biznesda asosiy narsa daromad va pul hisoblansa, shuni unutmasligimiz joizki, ularni bizga olib keltiradigan vosita bu marketingdir. Bir so'z bilan aytgan hech qachon marketingsiz uzoqqa borib bo'lmaydi.

### **Takliflar:**

- 1) Marketingni rivojlantirish uchun avvalo kompaniyada kuchli va xilma xil portfeli bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.
- 2) Ajoyib dizayn, bu marketingning kuchi hisoblanadi.
- 3) Marketingni har bir davlatga mos tarzda qilish, ya'ni mamlakatning madaniyatini hisobga olish.





4) Marketing jarayonida agar kompaniya kamida 10 ta davlat marketologlari bilan hamkorlikda ishlab, o'z qarashlarni almasha va mahulotga reklama yaratsa, bu eng yaxshi marketing bo'lar edi. Zero dunyoni o'rganish marketingda muhim rol o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) SH.DJ. Ergashxodjayeva “Strategik Marketing” 2019 yil. 9-27 betlar.
- 2) S.A.Salimov “Marketingni boshqarish” 2010 yil. 5-6 betlar.
- 3) <https://www.researchgate.net/>
- 4) [President.uz](http://President.uz)

